

LUTFIDDINOVA Hurshidabonu Abdujabbor qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: PALVANOV O'ktam Bazarbaevich
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrası dotsenti, PhD

JAMOLIDDIN AHMAD G'AZNAVIYNING "USULID- DIN" ASARIDA AQIDAVIY MASALALARNING ASOSLANISHI

ОБОСНОВАНИЕ ДОГМАТИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В ТРУДЕ ДЖАМАЛУДДИНА АХМАДА ГАЗНАВИ «УСУЛИ-Д- ДИН»

JUSTIFICATION OF DOCTRINAL ISSUES IN JAMOLIDDIN AHMAD GHAZNAVI'S WORK "USUL AL- DIN"

Annotatsiya: Bugungi globallashuv jarayonida islom dinidagi aqidaviy masalalarni to'g'ri tushunish va ularga taalluqli dalillarni to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat bugungi davrda, balki tarixda ham ushbu masalalar e'tiborga molik jarayonlar edi. Chunki, ularni noto'g'ri talqin qilish natijasida insonlar o'rtasida turli ig'vo va fitnalar kelib chiqqanligi ko'pchilikka ma'lumdir. Shu sababli, ushbu mavzu turli davr va mintaqalarda yashab ijod qilgan olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Jamoliddin Ahmad G'aznaviy ham mazkur mavzuga alohida ahamiyat qaratib, uni chuqur ilmiy tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Jamoliddin G'aznaviy, shar'iy hukmlarning tasnifi va ta'rifi, shar'iy masalalarni muayyan mezon asosida aqidaviy hamda fiqhiy kabi kategoriyalar bo'yicha tasniflash, aqidaviy dalillarni sharhlash.

Аннотация: В условиях современной глобализации правильное понимание догматических вопросов ислама и корректное толкование относящихся к ним доказательств приобретает особую значимость. Не только в наше время, но и на протяжении истории данные вопросы являлись

важными и актуальными, поскольку их неправильное истолкование приводило к возникновению различных смут и раздоров среди людей, что хорошо известно. В связи с этим данная проблематика находилась в центре внимания ученых, живших и творивших в разные эпохи и регионы. В частности, Джамалуддин Ахмад Газнави уделял этой теме особое внимание и подверг ее глубокому научному анализу.

Ключевые слова: Джамалуддин Газнави, классификация и определение шариятских норм, классификация шариятских вопросов по определённым критериям на догматические и фикхические категории, толкование догматических доказательств.

Abstract: In the context of today's globalization, correctly understanding doctrinal issues in Islam and properly interpreting the related evidence is of great importance. Not only in the present time but also throughout history, these issues have been significant, as their misinterpretation has led to various forms of discord and conflict among people, which is well known. Therefore, this topic has consistently attracted the attention of scholars who lived and worked in different periods and regions. In particular, Jamoliddin Ahmad Ghaznavi paid special attention to this subject and conducted a profound scholarly analysis of it.

Keywords: Jamoliddin Ghaznavi, classification and definition of Sharia rulings, categorization of Sharia issues based on specific criteria into doctrinal and jurisprudential categories, interpretation of doctrinal evidence.

KIRISH

Ahmad G'aznaviyning asarida aqidaviy masalalar asoslanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu borada to'rtta holat mavjud. Ularning dastlabkisi bu aqidaviy masalalarni mavzular bo'yicha izchil va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish, ikkinchisi, shar'iy hukmlarning tasnifi va ta'rifi, uchinchisi, shar'iy masalalarni muayyan mezon asosida aqidaviy hamda fiqhiy kabi kategoriyalar bo'yicha tasniflash va to'rtinchisi, aqidaviy dalillarni sharhlash sanaladi.

Aqidaviy masalalarni mavzular bo'yicha izchil va mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilish borasida soha olimlaridan har biri o'ziga maqbul, alohida yo'l tutgan bo'lsa-da, ular hech qanday ziddiyat yoki tortishuvni keltirib chiqarmagan. Xususan, bu borada Jamoliddin Ahmad G'aznaviyning ham

o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, u "Kitob usuli-d-din" asarida 18 bob va 170 ta masalani tartibli va batafsil bayon etadi. 170 ta masalaning 169 tasi aqidaga oid sanaladi. Oxirgi bobda esa fiqh ilmiga oid turli masalalar yoritiladi [3:308].

G'aznaviy har bir bobga alohida sarlavha qo'ymasdan, masalalarni birin-ketin bayon etgan. Kitobni tahqiq etgan Doktor Umar Vafiq kitobning muhim boblariga sarlavhalar qo'yadi, bu bilan o'quvchiga qulaylik yaratishni va ilmiy mavzularni aniqroq ajratishni maqsad qilgan. Har bir mavzu uchun alohida sarlavha tanlab, ularni qavs ichida keltiradi.

Kitob "Ilohiy sifatlar" ga oid masalalar bilan boshlanib, 47 ta masalani o'z ichiga oladi. Keyingi bob nomi "Alloh taoloning ismlari", u 17 ta masalani qamrab olgan. 3-bobga "Alloh taoloni ko'rish" nomi berilgan bo'lib, unda 1 ta masala yoritiladi. 4-bob esa, "Nubuvvat" deb nomlangan va u 4 ta masalani o'z ichiga oladi. 5-bob "Me'roj" mavzusiga oid bo'lib, u 2 ta masaladan iborat. 6-bob nomi "Kavniyot" bo'lib, unda 6 masala bayon etiladi. 7-bob "Bandalarning fe'llari" ga bag'ishlangan bo'lib, u 8 masalani qamrab oladi. "Savob va iqob" nomli 8-bob esa, 10 ta masaladan tashkil topgan. 9-bob nomi "Qazo va qadar" bo'lib, u 13 masaladan iborat. "Katta gunohni qiluvchi" nomli 10-bobda 2 ta masala bayon etiladi. 11-bob nomi "Qiyomat alomatlari" bo'lib, o'z ichiga 11 masalani qamrab oladi. 12-bob nomi "G'aybiyot" bo'lib, 20 ta masalani bayon etadi. 13-bob nomi "Shafoat" bo'lib, birgina masaladan iborat. 14-bob nomi "Jannat va do'zax" bo'lib, 5 ta masaladan iborat. 15-bob nomi "Imon" bo'lib, 8 ta masalani qamrab oladi. 16-bob 15-bobning uzviy davomi bo'lib, u "Imon va islom" deb nomlangan va 5 ta masaladan iborat. 17-bob nomi "Imomat" masalalariga tegishli bo'lib, 9 ta masaladan iborat. Shuningdek, oxirgi 18-bobda turli aqidaviy masalalar va fiqhga oid hukmlar bayoniga bag'ishlangan masalalar ham o'rin olgan [3:357].

ASOSIY QISM

Olimning "Kitob usuli-d-din" asarida aqidaviy masalalar 17ta bobdan iborat, masalalarni xuddi shu tartibda berilgan. Zamonaviy adabiyotlarda kalom ilmiga oid masalalar asosan to'rt mavzuga taqsimlangan bo'lib, ular "ilohiyot", "nubuvvat",

"kavniyot" va "sam'yot" kabi nomlangan [5:544]. Ahmad G'aznaviyning aqidaviy masalalarni muayyan mavzular bo'yicha taqsimlash usulini mazkur zamonaviy yondashuv bilan qiyosiy tahlil qilinsa, ular o'rtasidagi farq kuzatilishi mumkin.

Shar'iy hukmlar tasnifi va ta'rifi. Bu masala ahli sunna va-l-jamoadagi to'rtta mazhablar o'rtasida o'zaro bir-biridan farqlanadi. Masalaning mazmuni shundaki, ularning ba'zilar kishining dinda qolish yoki undan chiqish mezon bilan bevosita bog'liq. Shar'iy manbalarda "haromni halol, deb bilish insonni dindan chiqarishi" haqidagi umumiy aqidaviy qoida mavjud. Ahmad G'aznaviy hanafiy olimi sifatida dindan chiqish masalasiga hanafiylik jihatidan yondashib fikr bildiradi: "Biz ahli qibla (ya'ni, o'zini musulmon deb bilgan) dan hech kimni gunohi sababli, agar u gunohni halol deb bilmasa, kofir deb hisoblamaymiz va hech bir bandani islomdan chiqarib qo'ymaymiz. Faqatgina uni islomga kiritgan narsani inkor qilsa, shunda chiqadi [3:301]. Demak, olim tomonidan keltirilgan mazkur fikrlarga ko'ra, katta gunoh qilgan mo'minning dindan chiqmasligi ta'kidlanadi va unda tarixiy holatda xavorij, mo'tazila kabi, zamonaviy holatda esa, "Hizb at-tahrir" va salafiy kabi zamonaviy oqimlar qarashlariga raddiya mavjud.

Shar'iy masalalarni muayyan mezon asosida aqidaviy hamda fiqhiy kabi kategoriyalarga tasniflash. Aqidaviy va fiqhiy masalalarni bir-biridan ajratish o'zaro bahslarga va ziddiyatlarga sabab bo'lgan. Bu holatni bugungi kunda ham kuzatish mumkin. Aqidaviy va fiqhiy masalalar bir-biridan farqlanarkan, ular o'ziga taalluqli manbalarda keltirilishi lozim. Chunki turli omillar tufayli aqidaviy matnlarga ba'zi fiqhiy masalalar ham kiritilgan. Bu masalaning tarixi II/VIII asrga borib taqaladi. Jumladan, hanafiy mazhabining asoschisi Imom Abu Hanifa (80-150/699-767) ning "Kitob fiqh al-akbar" risolasida mahsiga mas'h tortish, fosiq kimsaga iqtido qilib namoz o'qish mumkinligi va ramazon oyida tarovih namozini o'qish sunnat bilan sobit bo'lganligi kabi fiqhiy masalalar keltirilgan [4:288]. Ya'ni, vaziyat taqozosi bilan furu' al-fiqh va qisman aqidaga oid ba'zi masalalar o'zaro qo'shilib zikr etiladi. Jumladan, "Kitob fiqh al-akbar" risolasiga mazkur fiqhiy masalalarning kiritilishiga o'sha

paytdagi mavjud mo'tazila va shia oqimlarining faoliyati asosiy sababdir. Shuningdek, III/IX asrda "karromiylik" oqimining vujudga kelishi va ular tomonidan ilgari surilgan noto'g'ri qarashlar natijasida keyingi davr aqidaviy manbalarga "valiy va nabiy o'rtasidagi farq" masalasi kiritilganligini kuzatish mumkin.

Avvalo aqida va fiqh so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolariga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Jamoliddin Abulfazl Muhammad ibn Mukarram ibn Ali Ansoriy (630-711/1232-1311) "Lison al-arab" asarida lug'aviy jihatdan "aqida" so'ziga "bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash ma'nosini anglatadi" va "fiqh" so'ziga "muayyan narsa haqida bilish va uni fahmlash", deb ta'rif bergan [2:296-300].

Jamoliddin G'aznaviy "Kitob usuli-d-din" da aqidaviy va fiqhiy hukmlarni alohida bayon etadi. Dastlab aqidaviy masalalar boblarga bo'linib bayon etiladi. Umumiy 170 ta masaladan 169 tasi aqidagaga oid bo'lib, muallif ularni bayon qilib bo'lgach fiqhiy masalalar bayoniga kirishadi. Oxirgi bob turli fiqhiy masalalarga tegishli bo'lib, unda olim quyidagilarni bayon etadi: "G'usl, tahorat, tayammum, ikki maxsiga mas'h tortish, namoz, zakot, ro'za, haj, juma, jamoat, azon aytish, iqomat, janoza va ikki iyd namozi, yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish, silai rahm, ota-onaga itoat etish va bundan boshqa barcha shar'iy amallarni haq va to'g'ri deb bilamiz. Shuningdek, qo'shniga va boshqa barcha insonlarga ozor berishdan tiyilish vojibdir. Yolg'on, g'iybat, tuhmat, bo'xton, yolg'on guvohlik berish va musulmonlar o'rtasida fitna olovini chiqarish haromdir.

Shuningdek, musulmonni la'natlash va unga yomonlik tilash haromdir, hatto u zolim bo'lsa ham. Ammo shunday duo qilinadi: "Allohim, agar u tavba qiluvchilardan bo'lsa, uning tavbasini qabul qilgin, agar u tavba qiluvchilardan bo'lmasa, bizdan va barcha musulmonlardan uning yomonligini daf etgin".

Din imomlari va salaf ulamolarini yomonlash, barcha qaytarilgan narsalarni qilish ham haromdir. Allohning dini osmonlarda ham bir bo'lib, u ham bo'lsa islomdir. Allohdan bizni islomda sobit saqlashini so'raymiz. Ana shu bizning dinimiz va ichki-tashqi e'tiqodimizdir. Alloh bilguvchidir" [3:305].

Aqidaviy masalalarni dalillash va sharhlash. Aqidaviy masalalarni dalillash va ularni to'g'ri tushunish hamda ushbu masalalarni to'g'ri talqin etish bugungi kunda asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Masalaning mohiyati shundaki, aqidaviy oqimlarning yuzaga kelishi hamda ularning tarafdorlari shakllanishida ko'p hollarda dalillarni noo'rin qo'llash va noto'g'ri talqin qilish asosiy sabab bo'lgan. Shu tufayli ham, Jamoliddin Ahmad G'aznaviy ushbu mavzuga batafsil to'xtalgan. U muayyan masala yuzasidan Qur'on oyatlari, hadis to'plamlari, aqida bo'yicha bir necha mo'tabar manbalar va shoirlarning she'rlariga murojaat etgan. Ularni ilmiy-nazariy tahlil qilib, tegishli xulosalar bergan.

Bu o'rinda, dastlab e'tibor qaratiladigan holat bu – aqidaviy masalalarni asoslashda dalillarning turlari hisoblanadi. Jumladan, Jamoliddin Ahmad G'aznaviy masalalarni dalillashda naqliy va aqliy dalillardan foydalangan. Umumiy holatda, u mazkur tasnifga muvofiq aqidaviy masalalarni yoritish uchun aqliy dalil sifatida mantiqni va naqliy dalillar sifatida esa, Qur'oni karim, lafziy va ma'noviy mutavotir hamda mashhur hadislar keltirgan. Lekin vaziyat taqozasiga ko'ra, allomaning mazkur asarida muayyan aqidaviy masalani yoritish maqsadida bir o'rinda naqliy hamda masalani bayon etishning har ikkalasidan va boshqa joyda esa, ularning faqat biridan unumli foydalanishini kuzatish mumkin. Hattoki, u muayyan masala yuzasidan nafaqat ahli sunna va-l-jamoa, balki undan og'ishgan toifalarning fikrlari va qarashlarini ham tahlil qilib, tegishli xulosalar bergan.

Ahmad G'aznaviy muayyan aqidaviy masalani dalillashda, naql bilan birgalikda aqlni ham qo'llagan. Dastlab naqlga oid ma'lumot beradi, undan keyin aqliy dalil bilan masalani yanada izohlaydi. Bunga misol qilib, "Ilohiy sifatlar" bobida kelgan quyidagi masalani keltirish mumkin: "Olam yaratuvchisi rang, ta'm, hid, issiqlik, sovuqlik, namlik va quriqlik bilan tavsiflanmaydi" [3:69].

Naql asosida matn keltirgandan so'ng, olim aqliy mushohadaga murojaat etadi: "Chunki ranglar, ta'mlar, hidlar va to'rtta tabiiy unsur (ya'ni, issiqlik, sovuqlik, namlik, quriqlik) – bularning barchasi javharlarda mavjud bo'ladigan arazlardir.

Agar biror narsa na o'zi araz bo'lsa va na arazlar joylashadigan javhar bo'lsa, u holda yuqoridagi barcha xususiyatlar undan inkor qilinadi. Alloh taolo javhar ham emas, va araz ham emas. Shunday ekan Alloh taolo bunday sifatlar bilan tavsiflanmaydi.

Shuningdek, olim Alloh taoloning "Quadrat" sifatini bayon etishda ham aqlga tayanadi: "Olam yaratuvchisi to'liq qudrat egasidir, chunki puxta va mukammal ishlarining vujudga kelishi faqat qudratli zotdangina tasavvur qilinadi" [3:96].

"Alloh taoloni ko'rish" borasida: "Olam yaratuvchisi oxiratda ko'z bilan ko'riladi, ammo bu ko'rish to'liq idrok etishsiz, qandayligini bilmasdan va chegarasiz bo'ladi. Chunki ko'rishning mumkin bo'lishi uchun mavjudlik yetarlidir. Alloh taolo mavjud bo'lgani uchun, zarur ravishda Uni ko'rish mumkinligi sobit bo'ladi" [3:316]. "Takvin" nomli faslda: "Bilki, takvin – mukavvandan boshqa narsadir. Chunki takvin va mukavvanni bir deb aytish – urishning o'zi urilgan narsa yoki o'ldirishning o'zi o'ldirilgan narsa bilan bir degan gap bo'ladi. Bu esa aqlga sig'maydigan, mumkin bo'lmagan narsadir [3:113].

Olim ayrim masalalarda naqlni bayon etadi va masalani izohlashga batafsil kirishmaydi. Balki, uning haqiqatini Alloh taoloning ilmiga havola qiladi. Bunga misol tariqasida "Istivo" masalasini keltirish mumkin: "Uning Arsh ustiga istivo qilishi haq va rostdir. Biz bunga imon keltiramiz va uni U qanday istagan bo'lsa, shundayligicha qabul qilamiz, bu ishning kayfiyatini o'rganish bilan mashg'ul bo'lmaymiz [3:75].

Kitobdagi ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, olim ba'zi masalalardagi fikrlarni muvofiqlashtirish imkoni bo'lmasa, ushbu masalani Alloh taoloning ilmiga havola etish yo'lini tanlagan.

Ayni holatda, Ahmad G'aznaviy muayyan aqidaviy masala yuzasidan adashgan toifalar fikrini ham bayon etib, ularga raddiyalar ham bergan. Bunga misol sifatida "Nabiylar ma'sumligi" masalasini keltirish mumkin: "Mo'tazilalarning aksariyati shunday deyishgan: xatolik, yanglish fikr, yoki gunohlar payg'ambarlarning hech biridan sodir bo'lishi mumkin emas. Chunki bu holat ularning maqomlarini kamsitishga olib keladi. Mo'tazilalarning ba'zilar esa: xatolik va shunga o'xshashlar amalda ham, so'zda ham yuz

berishi mumkin, chunki bu holatlarning bo'lmasligi ularning holatlariga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi" [3:137].

Jamoliddin Ahmad G'aznaviy bu borada mo'tazilalar fikrini bayon etganidan so'ng, ularga raddiya o'laroq quyidagi fikrlarni keltiradi: "Eng to'g'ri qarash shuki, Qur'on va boshqa ilohiy kitoblarda payg'ambarlar haqida kelgan matnlarni ta'vil qilish ishiga kirishmaymiz. Chunki bu holat ularning holatlarini xatoga yo'l qo'yish orqali noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Biz esa, bunga kirishmaymiz, shuning uchun bunday ta'villardan tiyilish kerak" [3:138]. Olim ushbu fikrlari orqali "Nabiylarning ma'sumligi" borasida turli noto'g'ri fikrlarni aytadigan mo'tazila toifasiga raddiya bermoqda.

Olimning o'z fikrlarini bayon etishda shoirlar she'rlaridan foydalangan o'rinlarni ham ko'rish mumkin. Asarda Alloh taoloning "Kalom" sifati bobini bayon etishda shoir Axtal (19-92/640-708) ning she'rini dalil sifatida qo'llaydi: "Alloh taoloda kalom mavjud, chunki buyruq va qaytarish faqat kalom bilan to'liq bo'ladi. Uning kalomi qadimiydir, chunki agar u qadimiy bo'lmaganida edi, Alloh taolo azalda kalomsiz bo'lgan bo'lardi. Bu esa, Uning o'zgaruvchanligini bildirardi, Alloh bunday kamchiliklardan pokdir.

Uning kalomi yaratilmagan, Alloh taolo bundan ham pokdir. Uning kalomi O'z zotida qoimdir, U zotdan ajralmaydi va qalblarga yoki qog'ozlarga ko'chish orqali ham undan ajralmaydi, chunki u Allohning kalomidir. Allohning kalomi – Uning sifatidir va Uning barcha sifatleri O'z zotiga bog'liq, U zotdan ajralmaydi.

Harflar, so'zlar bilan ifodalangan matnlar Allohning qadimiy, azaliy, o'ziga xos kalomiga dalolat qiladi. Bu iboralar "Allohning kalomi" deb atalsa-da, lekin ular yaratilgandir. Yaratilmagan narsani, yaratilgan shakl orqali ifoda qilish mumkin, bunga quyidagi shoir bayti dalil bo'ladi:

إن الكلام لفي الفؤاد وإنما
جعل اللسان على الفؤاد دليلاً.

Tarjimasi:

"Gap aslida yurakda bo'ladi,

Til esa, yurakdagini ko'rsatish uchun yo'l ko'rsatgich qilib yaratilgan" [3:302].

Aslida gapning haqiqati bu zotda mavjud bo'lgan ma'nodir, harflar va tovushlar esa, shu ma'noni ifoda etuvchi vositalardir. Bunday ma'no nafsiy kalom ya'ni qalbdagi kalom deb ataladi. Qur'onda ham qalbdagi so'zga ishora ochiq-oydin keltirilgan, Alloh taolo aytadi: "Ular dillarida: "Nega Alloh bizni aytayotgan gapimiz uchun jazolamaydi?"– deydilar" [1:71]. ("Mujodala" surasi, 8-oyat).

Bu yerda "aytish" degani-ularning yuraklarida, fikrlarida aytgan gaplari nazarda tutilmoqda, na tovush chiqarish va na harf terish ma'nosida emas. Bu misollar "nafsiy kalom", ya'ni qalbdagi gapni isbotlovchi dalildir.

Allohning kalomi – bu Uning o'ziga xos, azaliy va o'z Zotiga daxldor sifatidir, va Qur'on – Alloh taolo tomonidan arab tilida nozil qilingan, yaratilgan lafzlardan iborat bo'lsa-da, u nafsiy kalomga dalolat qiluvchi vositadir.

Allohning kalomi – Uning O'zidagi azaliy sifatidir, bu yaratilmagan. Lekin uni tovush, harf, yozuv shaklida eshitiladi, bu esa yaratilgan ifodadir. Olim shoirning so'ziga ko'ra, ushbu farqni tasvirlab beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Ahmad G'aznaviyning aqoid ilmiga oid qarashlari aqidaviy mavzular va ularga oid dalillarni to'g'ri tushunish va talqin qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ahmad G'aznaviyning asarida aqidaviy masalalar asoslanishida to'rtta holat mavjud. Allomaning dalillarni tahlil qilishda qo'llagan o'ziga xos uslublari turli kelishmovchiliklarning oldini olib, befoyda uzundan-uzoq o'zaro tortishuvlarni bartaraf etib, haqiqatni topish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Aqidaviy masalalarni mavzular bo'yicha ketma-ketlikda bayon qilish borasida olimlardan har biri alohida yo'l tutgan bo'lsa-da, ular hech qanday ziddiyat yoki tortishuvni keltirib chiqarmagan. Xususan, bu borada Jamoliddin Ahmad G'aznaviyning ham o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lgan. Olimning ko'plab ilmiy qarashlari borki, ularni tadqiq etish bugungi kun jamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi A.Mansurov. – Toshkent: Munir, 2021, – 624 b.
2. Abulfazl Muhammad ibn Mukarram ibn Ali Ansoriy. Lison al-arab. – Bayrut: Dor as-sodir, 1999. – J. XV. – 5938 b.
3. Jamoliddin Ahmad G'aznaviy. Usul ad-din.- Bayrut: Dor al-bashar al- islomiyya, 1998. – B.366.
4. Mulla Ali ibn Sulton Muhammad Qori. Al-fiqh al-akbar sharhi. – T.: Munir, 2021. – 288 b.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – T.: Hilol nashr, 2016. – 544 b.